

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ALIMOV AKBAR NARBOYEVICH

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING AXLOQIY TA'LIMOTIDA
RATSIONALLIK YONDASHUV MASALALARI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Alimov Akbar Narboyevich

Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta'limotida ratsionallik yondashuv
masalalari..... 3

Алимов Акбар Нарбоевич

Проблемы рационального подхода в этическом учении Хусейна Ваиза
Кашифи..... 23

Alimov Akbar Narboyevich

Problems of the rational approach in the ethical doctrine of Husayn
Waiz Kashifi 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ALIMOV AKBAR NARBOYEVICH

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING AXLOQIY TA'LIMOTIDA
RATSIONALLIK YONDASHUV MASALALARI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fal434 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Azizqulov Akram Abduraxmonovich**
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Ruzmatova Gulnoza Miraxrarovna**
falsafa fanlari doktori, professor

Mahmudov Ravshanbek Jalilovich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2023-yil "___" _____soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiyasi bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____ kunida tarqatildi.
(2023-yil "___" _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda informatsion globallashuv jarayonlari tobora keskin tus olayotgan sharoitda fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya qilish bugungi kunda mamlakatlar oldida milliy xavfsizlik masalasi sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy qashshoqlik va axloqiy tanazzuldan himoya qilishda ma'naviy merosning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, Sharq axloqiy tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo'lgan hayo va adab, pokizalik, oliyhimmatlik, chiroyli xulq va muloyimlik, mehr-shafqat va marhamat, vafo va rostgo'ylik kabi xislatlar inson ma'naviy kamolotini yuksaltirishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Shu ma'noda, bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ajdodlarimizning falsafiy-axloqiy ta'limotlari yoshlarni ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya qilishdagi dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahon ilm-fanida bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida Markaziy Osiyolik mutafakkir allomalarning ratsionallik tamoyili asosida bayon etilgan sharqona odob-axloq qoidalarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga mutafakkir allomalarning hayoti va ijodi, ular ma'naviy merosining barkamol yoshlarni tarbiyalashdagi nazariy-metodologik ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir. Xususan, ular tomonidan yaratilgan ta'limotlarda aks etgan axloqiy mezonlar, ijtimoiy adolatni ta'minlash prinsiplari, yoshlarni ma'naviy ogohlikka chaqiruvchi, mehnatsevarlik va vatanparvarlik g'oyalari axborot xurujlari va ma'naviy tahdidlar xavf solib turgan hozirgi murakkab globallashuv davrida yoshlarimizda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish hamda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirishda mazkur ma'naviy merosning konstruktiv ahamiyatini tadqiq qilish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan falsafa va kalom, fiqh va tasavvuf ilmining ma'naviy-axloqiy tafakkurga ta'sirini o'rganish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega"¹. Shu ma'noda, mutafakkirlarimiz, xususan, Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy merosida ilgari surilgan insonlarni komillikka da'vat etuvchi g'oyalarni barkamol inson tarbiyasi, jamiyatimiz ma'naviy ravnaqini mustahkamlashda ulkan ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini targ'ib qilish mexanizmlari, usul hamda vositalarini tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B.32.

6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori, 2019 yil 8 apreldagi F-5465-son “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoyishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” O‘RQ-699-son Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda VM 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Husayn Voiz Koshifiyning hayoti va ijodiy merosini o‘rganish o‘rta asrlardayoq Sharq olimlarining diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, uning merosi haqida ilk marta zamondoshlari va keyingi davr tazkirachilaridan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirxond, Xondamir¹, Zayniddin Vosifiy kabilar o‘z asarlarida yozishgan. Ammo ular asosiy e’tiborlarini alloma hayoti va faoliyatining ayrim jihatlariga qaratganlar.

Yevropalik sharqshunos olimlardan A.Arberri, A.Kraft, Sharl Shefer, V.Perch, O.Omer, G. E’tte, X.Re, E.Rexatzek, F.Karata, Daorn, E.Braun, E.Bloshe, Ch.A.Stori, X.G.Kin, Eronda Ali Akbar Dehxudo, Ahmad Gulchin Moniy, Turkiyada Shamsiddin Somiy, Muhammad Qutqu Bursaviy, rossiyalik A.Semyonov, E.Bertels, A.Boldirev kabi olimlar tomonidan Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy merosi tadqiq qilingan.

Markaziy Osiyo olimlaridan M.Behruz², A.Tohirjonov, M.Axmedov, X.Mirzozoda, S.Inomxo‘jayev, R.Musulmonqulov, O.Usmonovalar³ tadqiqotlarida alloma ilmiy merosining asosan manbashunoslik, notiqlik, she’riyat va badiiy, axloqiy jihatlari ochib berilgan.

Mustaqillik yillarida buyuk allomalarimizning ilmiy merosini o‘rganishga katta e’tibor berildi. H.Aliqulov⁴, Y.Jumaboyev, Sh.Mamidova, R.Mahmudovlar⁵

¹Xондамир. “Хулосат ул-ахбор фи баён ул-ахвол ул-ахёр” (“Хайрли кишилар ахволини баён этиш борасида хабарлар хулосаси”). –Тошкент: Фан, 1993. –Б.134

² Бехруз М.Х. Хусайн Ваиз Кашифи и его произведения эпистолярного жанра: Дисс...канд...ист. наук. – Москва, 1970. – С.23

³ Усмонова О. Ахлоки Мухсини Ваиза Кашифи. Введение в изучение памятников XV в., перевод, историко-филологический комментарий. Дисс...канд... филол. наук. – Ташкент, 1984. – С.166

⁴Алиқулов Х. Ўрта Осиё ва Хуросон мутафаккирларининг ижтимоий қаршида хурфикрлилик ва антиклерикал ғоялар (XIV-XV асрлар) // Ўрта Осиё халқлари хурфикрлиги тарихидан. – Тошкент: Фан, 1990. –Б.84

⁵ Махмудов Р. Хусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий-ахлоқий қарашлари. Монография. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. –Б.154

Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosini ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-falsafiy jihatlarini atroflicha tadqiq qilganlar. Jumladan, N.Komilov¹, A.Madramovlar tomonidan Husayn Voiz Koshifiy asarlaridagi tasavvuf falsafasiga doir, shuningdek adabiyotning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni to'g'risidagi qarashlarining ilmiy tahlili hozirgi davrda ham katta nufuzga ega ekanligi e'tirof etilgan.

Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga qaramay, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati bugungi kun nuqtayi nazaridan to'liq o'rganilmaganligi sababli, tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ilmiy ishlardan farqli ravishda Husayn Voiz Koshifiy ijodida ilgari surilgan ratsionallikka asoslangan axloqiy-falsafiy merosini hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yoshlarimizni turli ma'naviy tahdidlardan himoya etish tanlangan mavzuimizning ilmiy nuqtayi nazardan dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an'analar va ularning zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib etuvchi platforma yaratish (2020-2022)" mavzusidagi PZ-2020022811 raqamli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Husayn Voiz Koshifiy ilmiy ma'naviy merosida ratsionallik tamoyili mohiyatini ochib berish va ta'lim-tarbiya jarayonida olingan natijalar bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Temuriylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda II Renessans sharoitida Samarqanddagi Ulug'bek akademiyasi singari Hirotda Boysung'ur akademiyasining vujudga kelishi va unda olib borilgan tadqiqotlar va yaratilgan asarlarning Sharq va G'arb xalqlari ma'naviy taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyatini ochib berish;

Husayn Voiz Koshifiy tomonidan ishlab chiqilgan tariqat vakillari egallashi mumkin bo'lgan kasblarning axloq-odob qoidalarini – kasb etikasini hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi va mazkur sohadagi mutaxassislar uchun muhim nazariy va amaliy-uslubiy manba bo'lib xizmat qilishini asoslab berish;

Husayn Voiz Koshifiy o'z asarlarida temuriylar davrida xalq san'ati namunalari empirik va konseptual umumlashtirib berilganligi, shu bois alloma asarlari O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati taraqqiyoti darajasini o'rganishda muhim nazariy manba ekanligini asoslash;

Bugungi axborotlashgan jamiyat bosqichida jamiyat barqaror taraqqiyotiga ijtimoiy xavf tug'diradigan soxta tariqatchilikka qarshi kurashda Husayn Voiz Koshifiy merosi nazariy manba bo'lib xizmat qilishini yoritib berish;

Husayn Voiz Koshifiy tomonidan milliy etiketimizga xos bo'lgan mehmon kutish va xizmat ko'rsatishga oid odob-axloq qoidalari hozirgi davrda ham o'z

¹ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б.272

ahamiyatini yo‘qotmaganligini inobatga olib, mazkur sohadagi mutaxassislar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy-falsafiy merosi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Husayn Voiz Koshifiyning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy ta’limotida ratsionallik tamoyilini namoyon bo‘lishi va mohiyatini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, germinenvtik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati” asarida ratsionallik tamoyili asosida ishlab chiqilgan axloq falsafasi, xususan, kasb etikasini raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdagi o‘ziga xos milliy va umuminsoniy tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan;

Husayn Voiz Koshifiy tomonidan inson axloqiy barkamollikka o‘z-o‘zini tarbiyalab, takomillashtirib borishi tamoyili aql idrokka asoslanganligi bois yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda nazariy manba ekanligi asoslab berilgan;

Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida bayon etilgan soxta tariqat pirlari va ularning soxta ta’limotlarining mantiqiy ratsional tanqidi hozirgi sharoitda “soxta tariqatchilik” yo‘nalishidagi nosog‘lom diniy oqimlarga qarshi kurashda muhim manba ekanligi ilmiy asoslangan;

informatsion globallashuv sharoitida yosh avlodni ma’naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya etishda Husayn Voiz Koshifiyning axloq falsafasi substansional asosga ega ekanligi falsafiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hozirgi murakkab global turfa o‘zgarishlar sharoitida yoshlarimizni turli ma’naviy tahdidlardan himoya qilish va ularda milliy o‘zligini anglash tuyg‘usini shakllantirishda hamda yuksak ma’naviyatli barkamol avlod etib tarbiyalashda Husayn Voiz Koshifiyning ratsionallikka asoslangan ilmiy merosi muhim nazariy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi haqida tavsiyalar ishlab chiqilgan;

bugungi informatsion globallashuv bosqichida jamiyat barqaror taraqqiyotiga ijtimoiy xavf tug‘diradigan soxta tariqatchilikka qarshi kurashda Husayn Voiz Koshifiy merosi nazariy manba bo‘lib xizmat qilishiga oid takliflar ishlab chiqilgan;

o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va san’ati taraqqiyoti darajasini o‘rganishda Husayn Voiz Koshifiy merosi muhim nazariy manba ekanligiga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuvlar va konseptual qarashlarning maqsadga muvofiqqligi, Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishda ilgari surilgan g‘oyalar, ilmiy xulosalardan ijtimoiy fanlar bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar tayyorlashda; falsafa tarixi, tasavvufga oid, Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-falsafiy, diniy-tasavvufiy va ijtimoiy-axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy yo‘nalish va muammolari tadqiqiga oid keyingi izlanishlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ilgari surilgan hayotbaxsh g‘oyalar zamonaviy barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, dissertatsiyadagi taklif va tavsiyalardan aholining turli qatlamlariga milliy ma‘naviy merosimiz bilan faxrlanish, ajdodlarga munosib avlod bo‘lish g‘oyasini singdirish, ajdodlarning madaniy an‘analarini o‘rganish ishlarini jonlantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta‘limotida ratsionallik yondashuv masalalarining mohiyatini ochib berish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarida ratsionallik tamoyili asosida ishlab chiqilgan kasb etikasini raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdagi o‘ziga xos milliy va umuminsoniy tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy markazi tomonidan nashr etilgan “O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi” nomli ensiklopediyasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy markazining 2022-yil 29-martdagi 02/147-son ma‘lumotnomasi). Natijada, “O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy” merosi nomli ensiklopediyasini mazmunan takomillashtirishga xizmat qilgan;

Husayn Voiz Koshifiy tomonidan inson axloqiy barkamollikka o‘z-o‘zini tarbiyalab, takomillashtirib borishi tamoyili aql-idrokka asoslanganligi bois yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda nazariy manba ekanligiga doir taklif va tavsiyalardan 2021-yilda bajarilgan “Ziyorat turizmi”ni rivojlantirish bo‘yicha onlayn elektron ziyorat turizmi ob‘yektlari portalini yaratish” mavzusidagi 46-11/50-raqamli amaliy grant loyihasi ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 2022-yil 24-iyundagi 574-son ma‘lumotnomasi). Natijada Samarqanddagi mutafakkir allomalar ilmiy merosini o‘rganishda va hozirgi yoshlar ongi va dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, shu bilan birga o‘quv qo‘llanmaning mavzulari hamda nazariy-metodologik izchilligi oshib, globallasuv jarayonlarida yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalar, din niqobidagi ekstremistik va terroristik oqimlarning soxta aqidalaridan himoyalashda nazariy asos sifatida xizmat qilgan;

Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida bayon etilgan soxta tariqat pirlari va ularning soxta ta‘limotlarining mantiqiy ratsional tanqidi hozirgi sharoitda “soxta tariqatchilik” yo‘nalishidagi nosog‘lom diniy oqimlarga qarshi kurashda muhim manba ekanligi ilmiy asoslanganligiga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yilda efirga uzatilgan “Assalom

Samarqand” va “Ma’naviyat ko‘zgusi” ko‘rsatuvining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 28-fevraldagi 01-11/78-son ma’lumotnomasi). Natijada, hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yoshlarimizni turli ma’naviy tahdidlardan himoya etish va ularda milliy o‘zligini anglash tuyg‘usini shakllantirishda hamda yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashda Husayn Voiz Koshifiyning ratsionallikka asoslangan ilmiy merosi muhim nazariy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan;

informatsion globallashuv sharoitida yosh avlodni ma’naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya etishda Husayn Voiz Koshifiyning axloq falsafasi substansional asosga ega ekanligi falsafiy jihatdan isbotlanganligiga oid ilmiy taklif-tavsiyalardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yildagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturiga oid “Besh muhim tashabbus” doirasida amalga oshirilgan. “Ajdodlarga munosib voris bo‘laylik” mavzusidagi 18-bandi ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2022-yil 13-iyuldagi 02/02/1173-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar markazning targ‘ibot ishlarida hamda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarda mutafakkir allomalarimizning boy ma’naviy merosi va ajdodlarimizning ilg‘or g‘oyalari zamonaviy yoshlarimizning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, to‘qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot matnining “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchlilik darajasi, tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Husayn Voiz Koshifiy Ikkinchi Uyg‘onish davri mutafakkiri”** deb nomlangan birinchi bobda Markaziy Osiyoda Ikkinchi Uyg‘onish davrining xususiyatlari yoritib beriladi. Uch ming yillik davlatimiz tarixining eng shonli sahifalaridan biri bu temuriylar davri hukmronligiga to‘g‘ri keladi. Salkam 130 yil mo‘g‘ullar istilosidan ona yurtini ozod qilgan Sohibqiron Amir Temur qisqa vaqt ichida ulkan bir imperiyani yaratdi. Sohibqironning buyuk xizmati shundaki, u nafaqat Vatanini ozodlikka olib chiqdi, balki (Movarounnahrda) Markaziy Osiyoda Ikkinchi Uyg‘onish davriga shart-sharoit yaratib berdi. Mo‘g‘ul bosqinchilari vayron etgan o‘lkamizdagi shahar (va qishloqlar)ni qayta bunyod etish, ishdan chiqqan sug‘orish inshootlari, irrigatsiya tizimlarini tiklash bilan birga ilm, ta‘lim maskanlarini qayta tiklashga katta e‘tibor berdi. Dunyodagi ko‘plab olimlar va fuzalolarni o‘z yurtining markaziy shaharlariga to‘playdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik ilm-fan va madaniyat, san‘at markazlari yaratiladi. Samarqandda tashkil etilgan Akademiyaning tamal toshini qo‘ygan ham Sohibqironning o‘zi edi. Amir Temurning shaxsan o‘zining homiyligi va g‘amxo‘rligida Samarqandda Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Mavlono Ahmad, Shamsiddin Muhammad Xavofiy, Mavlono Muyniddin Koshoniy, shoir Xoja Ismat Buxoriy kabi mashhur olim va ulamolar ilmiy-ijodiy faoliyat olib borib, noyob ilmiy meros qoldirib ketdilar. Sohibqironning suyukli nabirasi, ma‘rifatparvar hukmdor, qomusiy bilim egasi Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagi ilm maskanini tadqiqot ilmiy laboratoriyasi, ya‘ni, rasadxonani bunyod etish, unda astronomiya va trigonometriya, handasa va riyoziyotga oid ko‘plab kashfiyotlarni yaratilishi Markaziy Osiyoda Sohibqiron tamal toshini qo‘ygan Ikkinchi Uyg‘onish davrining hosilasi edi. Bunyodkorlik va yaratuvchanlik ilm-fanga homiylik va g‘amxo‘rlik “qonida” bo‘lgan Temuriy shahzodalar ham bu uyg‘onish va yuksalish davriga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Temuriy shahzodalarning barchasi ilm-fan taraqqiyotiga homiylik qildilar, ularning aksariyati tabiiy ilmiy hamda adabiyot va san‘at sohasida tadqiqot olib bordilar. Sohibqironning ikki nabirasi saltanatining ikki yirik markazlari Samarqand va Hirotida ilm-fan maskanini yaratadilar va bu ilm o‘choqlarni g‘arblik olimlar ilmiy akademiya deb e‘tirof etganlar. Xuroson markazi Hirot shahrida ham Temuriy hukmdorlar ilm-fan va madaniyatning yirik markazini yaratdilar va ko‘plab buyuk qomusiy olimlar va mutafakkirlarning yetishib chiqishiga shaxsan g‘amxo‘rlik va homiylik qilishilari, Boysung‘ur Mirzo tomonidan ilmiy maktab faoliyat yuritganligi va tarixda “Boysung‘ur akademiyasi” nomini olganligi asoslab berilgan. Mazkur akademiya olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va yaratilgan asarlar salmog‘i juda sarmahsul bo‘lgan. Hirotidagi Boysung‘ur akademiyasida yaratilgan shart-sharoit va ilmiy muhit hamda Alisher Navoiyning bevosita homiyligi natijasida Husayn Voiz Koshifiydek yirik olimlar yetishib chiqdi. Temuriylar davrida Hirot shahrida Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Qosimi Anvor kabi zabardast olimlar, qomusiy bilim egalari bo‘lgan. Mutafakkir allomalar shular jumlasidandir. Hirot shahridagi yuzlab yirik madrasalarda tabiiy va ilmiy bilimlar sohasida olimlar sarmahsul ijod qiladilar. Davlatshoh Samarqandiyning

qayd etishicha uch aka-uka Mirzo Ulug‘bek, Ibrohim Mirzo, Boysung‘ur Mirzo o‘rtasida doimiy ravishda o‘zaro maktub yozishmalari mavjud bo‘lib, ular ilm-fan, san‘at va madaniyatga oid o‘z fikrlarini o‘zaro baham ko‘rganlar¹. Temuriy shahzodalarning she‘riyatdan yaxshi xabardor bo‘lganligini Abdurazzoq Samarqandiy bayon etar ekan, Boysung‘ur Mirzo Amir Xusrav "Xamsa"sini, ma‘rifatli xoqon Mirzo Ulug‘bek esa Nizomiyning “Xamsa”sini ortiq ko‘rar edi, shu bois ular o‘rtasida ko‘p she‘riy tortushuvlar bo‘lardi, deb eslaydi. Shohruxning yana bir o‘g‘li Ibrohim Sulton ham she‘riyatni juda qadrlagan. Ma‘rifat homiysi bo‘lgan Shahzoda Ibrohim Sulton bobosi haqida maxsus kitob yozdirishni maqsad qiladi va shaxsan o‘zi bu ishga ma‘sul bo‘ladi. To‘plangan ma‘lumot va hujjatlar asosida va bevosita shaxsan Ibrohim Sulton rahbarligi ostida Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan “Zafarnoma” asari yoziladi”².

Amir Temur va temuriy shahzodalarning ilm fan taraqqiyotiga shaxsan g‘amxo‘rligi, ilmiy tadqiqotlarga bevosita rahbarligi tufayli Samarqand va Hirotida ilmiy markazlar, akademiyalar vujudga keldi va undagi olib borilgan tadqiqotlar va yaratilgan asarlar salmog‘i juda sermahsul bo‘lgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ijodi to‘g‘risida batafsil ma‘lumot beriladi. Mutafakkir alloma Husayn Voiz Koshifiyning hayoti va ijodiy faoliyati H.Aliqulov, A.Toxirjonov, O.Usmonova, R.Maxmudovlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Tadqiqotchilarning fikriga tayanib aytish mumkinki, bo‘lajak mutafakkir milodiy 1440-yillarda Xuroson viloyatiga tegishli bo‘lgan Sabzavor shahrining Boyhaqi kentida tug‘ilgan. Mutafakkirning ajdodlari, bolaligi va dastlabki ta‘lim olishi ustozlari haqidagi aniq ma‘lumotlar deyarli yo‘q. Ammo ilohiyot ilmini mukammal bilishi, notiqlik san‘atining mohir ustasi, tabiiy va ijtimoiy bilimlarning puxta bilimdonligi, xullas, qomusiy bilim egasi bo‘lib yetishish uchun yoshligidan mustahkam asos va yaxshi oilaviy tarbiyaviy zamin bo‘lishi shartdir. Ayniqsa, yoshligidanoq mashhur voiz bo‘lib tanilishi uchun notiqlik san‘atini mukammal egallaganligi ayondir. Sabzavor ahli uni yoshligidanoq iste‘dodli voiz sifatida hurmat qilganlar. Husayn Voiz Koshifiy dastlab Nishopurda, 1455-1468-yillarda Mashhadda yashab voizlik qilganligi ma‘lum³. Husayn Voiz Koshifiy Hirot shahriga 1469-yildan yashay boshlaydi. Hirot shahrida Alisher Navoiy g‘amxo‘rligida yashagan Husayn Voiz Koshifiy o‘zining noyob asarlarini yaratdi. Husayn Voiz Koshifiy oilaviy ahvoli haqida juda kam ma‘lumotlar etib kelgan. Alloma ilmiy merosini o‘rgangan tadqiqotchilar uning ikki qizi va bir nafar o‘g‘li borligini qayd etishgan. Husayn Voiz Koshifiyning o‘g‘li Faxriddin Ali Safiy o‘z davrining mashhur shoir va olimlaridan biri bo‘lib 20 ga yaqin asarlar yozgan.

Husayn Voiz Koshifiy bilan yashagan zamondoshlari Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylar uni iste‘dodini yuqori baholaganlar va g‘amxo‘rlik qilgan.

¹ Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. - Б.141.

² Шарафиддин Али Яздий, Зафарнома, Мовароуннаҳр воқеалари, 1360-1370 [таржимон: О. Бўриев]. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. - Б.8.

³Махмудов Р. Хусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий-ахлоқий қарашлари. Монография. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. - Б.20.

Alisher Navoiy o'zining "Majol un-nafois" asarining to'rtinchi majlisida: «Mavlono Husayn Voiz – "Koshifiy" taxallus qilur. Sabzavorlikdir. Yigirma yilga yaqin borkim, shahardadir va Mavlono zufunun va rangin va purkor voqe' bo'lubtur. Oz fan bo'lg'aykim, dahli bo'lmagay. Xususan, va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor...»¹, – deb uning iste'dodini, bilimi kengligini yuksak baholagan. Yuqorida keltirilgan qimmatli ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Voiz Koshifiy Alisher Navoiydek buyuk mutafakkirning e'tiborini tortib, mehriga, hurmatiga sazovor bo'lgan. Husayn Voiz Koshifiy Navoiyni ustoz deb e'zozlagan. Husayn Voiz Koshifiy Markaziy Osiyo madaniyati, xususan, Xuroson ilm-fanining rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkir darajasiga ko'tarilgan.

Mashhur tarixchi Xondamir o'zining "Xulosat ul-axbor" asarida Husayn Voiz Koshifiyni quyidagicha ta'riflaydi. "Mavlono Kamoliddin Husayn Voiz ma'qul va maxsus ilmlarning barchasidan to'la naflangan va bahramanddir. Hozirgi vaqtda Sharqda Xuroson diyorida ul janobga teng keladigan kishi topilmaydi. Tangri kalomining tafsiri hamda hazrati risolatpanoh payg'ambar hadislarining ma'nilarini minbardan turib g'oyatda pokiza va ma'noli qilib tushuntiradi. ... Ul janob nujum ilmida ham zo'r mahoratga ega edi, chunonchi, uning ta'birlari qazo o'qi singari bexato bo'lardi. Uning balog'atoyoqlik hamda fasohatsifatlik kitoblari ko'p va behisob bo'lib, ularning ko'pi olimaqom amir Alisherning atoqli nomi bilan ziynatlangan. Amir Alisherning inoyat va iltifoti ul janobning hol sahifasiga hammavaqt tushub turadi..."², deb baho bergan edi. Xondamirning bu fikrlari Koshifiy haqidagi eng qimmatli ma'lumot hisoblanadi.

Husayn Voiz Koshifiydan ulkan ilmiy meros qolgan bo'lib olimlar uning asarlarini 25 tadan to 200 tagacha bo'lganligini qayd etadilar³. Professor R.Maxmudov O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Husayn Voiz Koshifiy asarlarining 75 ta toshbosma nusxasi 197 ta qo'lyozma nusxalari haqida ma'lumot berib o'tadi⁴. Bundan tashqari R.Maxmudov Husayn Voiz Koshifiy asarlarini tasniflar ekan ularni 14 ta guruhlariga ajratadi. Allomadan mana shunday ulkan ma'naviy meros qolgan.

Dissertatsiyada Sharq xalqlari orasida axloq falsafasiga oid mukammal asar yaratgan olimlardan biri Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy falsafiy dunyoqarashining shakllanishida, ayniqsa, axloq falsafasida ratsionallik tamoyiliga amal qilishida antik davr yunon mutafakkirlarining ta'limotlarining ta'siri falsafiy metodologik jihatdan tahlil etiladi. Yunon mutafakkiri Arastu axloqshunoslikni alohida fan sifatida ajratar ekan, inson o'zining ratsional aqliy faoliyati orqali axloqiy fazilatlarini takomillashtirish tamoyilini ilgari suradi. Arastu etikasi

¹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Асарлар 15 томлик. 12-том. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1966. - Б.123-124.

² Хондамир. Хулосат ул-ахбор. Навоий замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. - Б.70-71.

³ Махмудов Р. Хусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий-ахлокий қарашлари. Монография. – Тошкент: "MUMTOZ SO'Z", 2015.- Б.25.

⁴ Ўша асар .- Б.10.

asosida yotgan ratsionallik tamoyili Musulmon Sharqi falsafasida takomillashtirildi. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy kabi ko‘plab mutafakkir allomalarimizning falsafiy-axloqiy ta‘limotlari, yaratgan asarlari bunga misoldir.

Ayniqsa, alloma Husayn Voiz Koshifiyning falsafiy-axloqiy asarlari Arastuning ratsionallik tamoyilining ta‘siri katta bo‘lgan. Husayn Voiz Koshifiy Arastu singari axloqiy fazilat insonda ta‘lim-tarbiya orqali takomillashib boradigan jarayon deydi. Inson axloqiy fazilatlarini bayon etishda ham, tasavvuf vakillarining axloqiy talablarini izohlashda ham, har bir kasb egalarining axloqiy fazilatlarini, ya‘ni, kasb etikasini tushuntirishda ham ratsionallik tamoyiliga amal qiladi. Arastu singari insondagi ixtiyor erkinligi, tanlov xususiyati orqali inson axloqiy fazilatlarini yuksaltirib boradi, degan xulosaga keladi. Biror-bir axloqiy fazilatni bayon etishda tez-tez Arastu ta‘limotiga murojaat qiladi. Ba‘zan biror xislatni bayon etishda Arastu nomidan bayon etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosida ratsionallik tamoyilining xususiyatlari”** deb nomlanib, unda allomaning falsafiy-axloqiy asarlarida asosiy tamoyil e‘tiqod va aql munosabati ratsional yondashuvning mohiyati yoritib beriladi. Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy merosining tarixiy ahamiyati avvalo aql va e‘tiqod munosabatida ratsionallik tamoyili asosida yondashuvdir.

Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yuksak darajadagi axloq-odob va muomala etiketini targ‘ib qiluvchi axloq falsafasi ishlab chiqilgan bo‘lib ibtidosi Avestodan boshlanadigan Sharq xalqlarining axloq-odobga oid qarashlari asrlar davomida takomillashib borgan. Markaziy Osiyo mutafakkir allomalari merosida, xususan, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida axloq falsafasi nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirilgan.

Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ratsionallik tamoyili asosida sharqona etiket hamda axloq-odob qoidalari nazariy jihatdan takomillashtirildi. Husayn Voiz Koshifiy o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi mavjudot sifatida insonni o‘z-o‘zini tarbiyalab yetuk axloqiy fazilatlarga erishish mumkinligi g‘oyasini asoslab bergan.

Alloma ilgari surgan sharqona etiket qoidalari, xususan, taom yeyish va suv ichish adablari, ko‘chada yurish qoidalari, salom berish va muomala madaniyati bugungi axborotlashgan jamiyat bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashda zaruriy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi tadqiqotda yoritiladi.

Dissertasiyada mutafakkir Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy falsafiy asarlarida har qanday e‘tiqod avvalo, aqlga tayanishi lozimligi ko‘rsatib berilgan. Husayn Voiz Koshifiy tasavvuf ta‘limotini mohiyati va mazmunini yoritishda ham ratsionallik tamoyiliga tayanadi. Tasavvufning mohiyatini tushuntirar ekan shunday deydi: “Bilgilkim, har ilmning o‘z mavzui bor va unda o‘sha ilmning mohiyati, hodisa va qoidalari xususida bahs boradi... Bas, ... futuvvat ilmning o‘z mavzui bor, bu mavzu – inson ruhi hisoblanadi. Zero, insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go‘zal va hamida xulq-atvorli, fazilatli qilib yetishtirish

mumkin”¹. Inson kamolotga faqat e’tiqod orqali emas, balki, xulq-atvorini takomillashtirib, ruhini tarbiyalab komillikka yetishadi deyishi, allomaning muammoga ratsional yondashuvi mavjudligini ko’rsatadi.

Tasavvufda futuvvatning ruknlarini quyidagicha tushuntirib beradi: “Birinchisi-islom, ikkinchisi-imon, uchinchi-**aql**, to’rtinchi-**ilm**”². Futuvvatning shartlarini bayon etar ekan, islom va iymondan keyin aql va ilmni ta’kidlashi har qanday e’tiqod aqlga tayanishi kerakligini uqtiradi. Islomning aqidalari va arkonlarini mantiqiy tafakkur, aql va ilm orqali o’zlashtirish mumkinligiga urg’u bermoqda.

Husayn Voiz Koshifiy tasavvufning mohiyatini ham ratsionalistik tarzda quyidagicha izohlaydi: “Agar tasavvufning binosi nechta asosga qurilgan deb so’rasalar, o’nta asosga deb ayt. Birinchi-**ilm**,.....”³. Husayn Voiz Koshifiy tasavvufga mistik ilohiy emas, balki ilm orqali erishish mumkinligini ta’kidlaydi.

Tariqatda shayxlik, ya’ni shayxlikka loyiq kishidagi xislatlar yigirmata ekanligini bayon etar ekan shunday deydi: “...Ikkinchidan, zaruriy ravishda ilm egallagan bo’lishi lozim, fiqh va tariqat ilmini ham chuqur o’zlashtirgan bo’lsin... O’n to’rtinchi mohir murabbiy bo’lsinkim muridni tarbiyalay olsin”⁴. Muridning xislatlarini bayon etgandan so’ng, muridning, ya’ni, shogirdning qanday xislatlarga ega bo’lishi kerakligini tushuntirishda ham mantiqiy yondashar ekan shunday deydi: “...Ikkinchidan, u oqil odam bo’lishi lozim, chunki aqlli bo’lmasa, so’zning pastu balandi, ramziy-botiniy ma’nolarini anglamaydi... Yettinchidan, baland idrokli bo’lsin, ya’ni, o’tkir zehn va ziyraklik bilan to’g’ri yo’lni topib olsin”⁵. Muridning odobi va shartlarini bayon etishda Husayn Voiz Koshifiy mantiqiylik va izchillikka, ya’ni, ratsionallik tamoyiliga tayangan holda bayon etadi.

“Tariqatga pirlikni da’vo qiladigan odam, - deydi Koshifiy. – Avvalo, zaruriy ravishda ilm egallagan, muridga tariqatga taalluqli har qanday mushkul savol tug’ilganda uni osonlik bilan hal qilib beradigan bo’lsin”⁶. Shayxlik ruknlarni tushuntirishda ham e’tiqod va aql kategoriyasi munosabatida ratsionalistik yondashib shunday deydi: “Agar shayxlik ruknlari nechta, deb so’rasa, yettita deb aytgil. Birinchisi, komil ma’rifat egasi bo’lsin, ... Ikkinchidan, o’tkir farosatli, odamshunos kishi bo’lib, bir nigoh tashlashi bilan muridning qobiliyatini ilg’ay olsin. Uchinchidan, yetuk ma’naviy quvvati bo’lsin ...”⁷.

Asar muqaddimasida Husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: “Hakimlar chiroyli xulq shunday bir yo’lki, bu yo’ldan yurmay turib, izzat va sharif manziliga yetib bo’lmaydi va bu yo’lga qadam qo’ymay turib vujud raxtini hayvonot biyobonidan insoniyat doril mulkiga yetkazib bo’lmaydi, deydilar... Odamlarning qay birlarida chiroyli xulq va yoqimli xislatlar namoyon bo’lsa, shu kishilar zebo

¹ Кошифий Хусайн Воиз. Фугуватномаи султоний; Ахлоқи муҳсиний. Нашрга тайёрловчилар М.Аминов, Ф.Хасанов. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011.-Б.16.

² Ўша асар. - Б.20.

³ Ўша асар. - Б.30.

⁴ Ўша асар. - Б.34.

⁵ Ўша асар. -Б.37 .

⁶, Ўша асар. - Б.34.

⁷ Кошифий Хусайн Воиз. Фугуватномаи султоний; Ахлоқи муҳсиний. Нашрга тайёрловчилар М.Аминов, Ф.Хасанов. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. - Б.35.

ko‘rinadilar”¹. Husayn Voiz Koshifiyning fikriga ko‘ra insonning ulug‘vorligi va yuksak ma‘naviyati uning chiroyli xulqi va yoqimli xislatlariga bog‘liqdir.

Koshifiyning axloqiy asarlarida asosan kishilarning ijtimoiy faoliyatidagi axloqiy fazilatlarni takomillashtirishning falsafiy tahlili ishlab chiqilgan.

Husayn Voiz Koshifiy insonni o‘z-o‘zini tashkillashtirish, tarbiyalash orqali barcha axloqiy fazilatlarni kamolot darajasiga yetkazish mumkinligiga urg‘u beradi. Husayn Voiz Koshifiy inson rioya etishi lozim bo‘lgan axloqiy fazilatlarni falsafiy tahlilini bayon etar ekan, axloq-odob xususida sharqona etiket qoidalariga ham alohida e‘tibor qaratadi.

Koshifiy merosining ilmiy ahamiyati avvalo, u tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda e‘tiqodni aqlga asoslanishi lozimligini ta‘kidlanishi va shu bois, uning asarlari Sharq xalqlari ma‘naviy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan bebaho mumtoz asarlar qatoridan o‘rin oladi.

Hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yoshlarimizni turli ma‘naviy tahdidlardan himoya etish va ularda milliy o‘zligini anglash tuyg‘usini shakllantirishda hamda yuksak ma‘naviyatli barkamol avlod etib tarbiyalashda Husayn Voiz Koshifiyning ratsionallikka asoslangan ilmiy merosi muhim nazariy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Husayn Voiz Koshifiy axloqiy-falsafiy qarashlarida bag‘rikenglik tamoyilining mohiyati talqin etilgan. Avvalo, hozirgi kishilik jamiyati taraqqiyotiga xos bo‘lgan globallashuv sharoitida barqaror ijtimoiy munosabatlarning istiqboli uchun gumanitar madaniyatning muhim omili bo‘lgan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyili umuminsoniy qadriyat sifatida barcha xalqlar tomonidan qabul qilinmoqda.

Husayn Voiz Koshifiy asarlarining ilmiy ahamiyati avvalo odob-axloq qoidalarini bayon etish bilan birga turli millatlar va dinlar vakillari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, tinch-totuvlik kabi bag‘rikenglik tamoyili ilgari surilganligi bilan qimmatlidir. Allomaning asarlarida keltirib o‘tilgan rivoyat va hikoyatlarda qahramonlar goh nasroniylik payg‘ambari Iso yoki yahudiylik dini payg‘ambarlari Dovud, Sulaymon, ba‘zan zardushtiylik dini kohini yoki hind ruhoniysi bo‘lishi mumkin. Asarda Qur‘ondan tashqari Injil va boshqa diniy manbalardan ham dalillar keltiradi. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni targ‘ib etar ekan shunday hikoyani boshlaydi: “...uch podsho No‘shiravon majlisida hozir bo‘ldilar. Bular rum Qaysari, Chin hoqoni va Hindiston royidir”². No‘shiravon huzurida Rum Qaysari, Xitoy hoqoni, va Hind royisi bo‘lishi, albatta, bu muallifning xayoliy tasavvuri, ammo bunda to‘rt xil millat, to‘rt xil din va to‘rt davlat rahbarlarining bir vaqtda, bir joyda, birgalikda o‘zaro hamsuhbat bo‘lishi milliy va diniy bag‘rikenglik tamoyilining targ‘ibotidir. Husayn Voiz Koshifiy orzu va umid qilgan Eron, Xitoy, Hindiston va G‘arb davlatlari rahbarlarini birgalikda hamjihat bo‘lib inqirozli va global muammolarni hal etishi uchun ming yil emas, balki, besh yuz yil yetarli bo‘ldi. Allomaning hamjihatlik, millatlararo totuvlik va diniy

¹ Ўша асар. - Б.129.

² Кошифий Ҳусайн Воиз. Футуватномаи султоний; Ахлоқи муҳсиний. Нашрга тайёрловчилар М.Аминов, Ф.Хасанов. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011.-Б.327.

bag'rikenglik xususidagi bashoratlarini endilikda amalda ko'rib turibmiz. Bu hodisa ham Husayn Voiz Koshifiyning ratsional tafakkurining hosilasidir.

Husayn Voiz Koshifiy islom dinining e'tiborli ulamosi va voizi bo'lishi bilan birga, zardushtiylik dini va uning nazariy manbalaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Zardushtiylik dinidagi taraqqiyparvarlik va adolatni targ'ib etuvchi g'oyalarni islom hukmron bo'lgan o'rta asrlarda ham targ'ib qila olgan.

Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi muhsiniy" asarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda shaxs ma'naviy yuksalishida zarur bo'lgan odob-axloq qoidalari mukammal ishlab chiqilishi bilan birga turli millatlar va din vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlik, tinch-totuvlik kabi bag'rikenglik tamoyili ilgari surilgan. Husayn Voiz Koshifiy ilgari surgan barcha millat va din vakillarining tengligi g'oyasi hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Axborot xurujlari va ma'naviy tahdidlar xavf solib turgan hozirgi murakkab globallashuv davrida yoshlarimizni turli ma'naviy tahdidlardan himoya etish va ularda milliy o'zligini anglash tuyg'usini shakllantirishda hamda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirishda Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosi muhim nazariy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **"Husayn Voiz Koshifiyning ratsionallikka asoslangan axloq falsafasining tarbiyaviy ahamiyati"** deb nomlangan uchinchi bobida mutafakkir alloma ilmiy merosining bugungi informatsion globallashuv sharoitida barkamol yoshlarni tarbiyalashdagi amaliy- metodologik ahamiyati bayon etilgan.

